O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI OQDARYO TUMAN HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - sentabr 190-7-92-Q/22 Oqdaryo tumani hokimligi

Tumandagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida

“Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunning 7-, 20-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l harakati havfsizligi to‘g‘risidagi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 348-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 12 apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 172-son Qarori talablari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish, maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-, 6- va 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Valiyev) va IIB YHXB (Sh.Xoliqov)larga tuman hududidagi umumta’lim maktablari atrofida transport vositalarini cheklangan tezligini oshirmasligi uchun 30 tezlikdagi yo‘l belgisi o‘rnatilishi bilan avtomobil yo‘li bo‘ylab avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Majidov) ushbu qarorni “Oqdaryo ovozi” gazetasida nashr etilishi, hokimlik rasmiy veb saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari E.Ashurov zimmasiga yuklatilsin.

Oqdaryo tuman hokimi **Qudratov Sh.**